

ETYUD-MAQOLANING XUSUSIYATLARI

Xamroyeva Mexriniso

Osiyo xalqaro universiteti 2- kurs talabasi

Ilmiy rahbar: professor **Sh.N,Axmedova**

Annotatsiya. Maqolada adabiy tanqid faol janrlaridan biri adabiy-tanqidiy maqola, portret-maqola va uning kichik bir shakli etyud-maqola haqida ma'lumot beriladi. O.Sharafiddinovning Said Ahmadga bag'ishlangan etyudlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: adabiy tanqid, yozuvchi, munaqqid, janr, etyud, maqola, eskiz, baho.

Abstract. The article provides information about one of the active genres of literary criticism - the literary-critical article, the portrait-article and its small form - the essay-article. The essays of O. Sharafiddinov dedicated to Said Ahmad are discussed.

Keywords: literary criticism, writer, critic, genre, essay, article, sketch, assessment.

Kirish. Adabiyot hayotni, jamiyatni, voqelikni, inson hayotini badiiy aks ettiradi, barkamol yetuk obrazlar yaratadi, adabiy tanqid esa voqelik, kishilar hayoti, ruhiyati ijodkorlar tomonidan go'zal, haqqoniy, yangicha tarzda aks ettirilganini baholaydi, yutuq va kamchiliklarining tub sabablarini ko'rsatib beradi. Bu jabhada adabiy tanqid janrlari faollik ko'rsatadi.

“Adabiy tanqidning faol janrlaridan biri maqola bo'lib, u taqrizga nisbatan hajman kattaligi, tahlil va tadqiqqa tortilgan adiblar, asarlar va muammolar ko'lamining kengligi, zamon va makon masalasidagi xoslik kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi”[2,358].

Maqolaning paydo bo'lishi gazeta va jurnallar, turli xil to'plamlar, kitoblar nashr etish hamda matbuot tarixi bilan bog'liqdir. Shunga ko'ra maqola gazeta, jurnal, to'plamlarda nashr etiladigan siyosiy, ilmiy, publitsistik, ijtimoiy xarakterdagi va umumlashtiruvchi kuchiga egadir. Shundan kelib chiqib, maqola mavzusi, mazmuni, mohiyati, maqsadiga qarab, siyosiy maqola, ilmiy maqola, publitsistik, adabiy-tanqidiy maqola kabi ichki ko'rinishlarga ega bo'ladi.

Adabiyot sohasidagi fikr-mulohazalardan tashkil topgan maqola adabiy-estetik qarashlarni ifoda etadi. Bunday maqolalarda biror asar yoki adabiy muammo tahlil qilinib, shu jarayonda kelib chiqqan ilmiy-estetik xulosalar yoritiladi. Shu xususiyatiga ko'ra bu xildagi maqolalar adabiy-tanqidiy maqola deb yuritiladi. Adabiy -tanqidiy maqolalarning o'zi ham bir necha ichki ko'rinishlarga ega. Ustozimiz Sh.Axmedova adabiy tanqid janrlarini o'rganib, o'zbek tanqidchiligida adabiy-tanqidiy maqolaning, asosan, uch turi portret- maqola, obzor maqola, muammoli maqola kabi tasniflarni beradi [1, 87].

Bular ichida portret-maqolaning o'zi ham bir necha shakllarga bo'linganini ko'ramiz. O'zbek tanqidining taraqqiyotini kuzatar ekanmiz, XX asr 20-yillaridan portret-maqolalar shakllanganini ko'rish mumkin. Keyingi yillarda portret-maqolalar yangi yo'sinlarda takomillasha borganini ko'rinadi. Ular yozilish maqsadiga ko'ra turlicha guruhlangan:

- a) hayot bo'lgan shoir yoki adibning yubileyi munosabati bilan;
- b) ijodkorning biror kitobi nashr etilishi munosabati bilan so'zboshi shaklida yozilgan portret-maqola;
- v) shoir yoki adib vafotidan so'ng muayyan sanalarning nishonlanishi munosabati bilan;
- g) mukofotlanish yoki taqdirlanish munosabati bilan yozilgan portret maqola [1,78].

Mukofotlanish yoki taqdirlanish munosabati bilan yozilgan portret maqolalarni ham turlicha tasnif qilish mumkin, chunki ular hajmi va maqsadidan kelib chiqib tasniflanadi. Masalan, ular orasida etyud-maqolalar ko'pchilikni tashkil etadi.

Etyud (fransuzcha "étude" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "o'rganish" degan ma'noni anglatadi) san'at, musiqa, adabiyot va teatr bo'yicha qisqa tayyorgarlik ishi yoki mashqdir. U tabiatni o'rganish, texnikani rivojlantirish yoki ijodiy g'oyani ishlab chiqishga qaratilgan. Ko'pincha, etyudlar o'zlarining spontanligi va yangiligi tufayli mustaqil san'at asariga aylanadi [4].

Atamaning asosiy ma'nolari quyidagicha:

Tasviriy san'atda: Biror narsa, yorug'lik, rang yoki kompozitsiyani o'rganish uchun hayotdan olingan rasm, rasm yoki haykal (ko'pincha rasm chizishning oldingi qismi).

Musiqada: Muayyan cholg'uda texnikani takomillashtirish uchun mo'ljallangan cholg'u asari (masalan, Shopen yoki Cherni etyudi).

Teatrda: Aktyorlik mahoratini rivojlantirish uchun qisqa ta'limiy yoki improvizatsiya qilingan sahna ko'rinishi.

Adabiyoda: Muayyan mavzu yoki tavsifga bag'ishlangan qisqa badiiy, adabiy, adabiy-tanqidiy yoki jurnalistik asar.

Adabiyotshunoslikda shunday holatlar uchraydiki, tanqidchilar asarlarini etyudlar deb nomlaydilar. Masalan, O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinovning "Adabiy etyudlar" degan kitobi bor. Bundan tashqari munaqqidning "Ijodni anglash baxti" kitobiga kirgan bir qancha etyudlari borki, ular A.Qahhorga, Said Ahmadga bag'ishlangan.

"Abdulla Qahhor haqidagi etyudlar" 7 qismdan iborat. Har bir qismda yozuvchining hayoti, ijodji bilan bog'liq bitta mavzu yoritib berilganini ko'ramiz.

Yoki tanqidchining "Said Ahmad haqida etyudlar"i 3 qismdan iborat. Uning birinchi qismida Said Ahmadning 70 yilligiga bag'ishlab yozilgan bo'lib, adibning san'atkorligi haqida so'z yuritiladi, umumiy holatda uning asarlariga baho beriladi. Eng muhimi, adibning san'atkorligi nimada ekanligi ochib beriladi. "Birinchisi shuki, Said Ahmad asarlari g'oyat boy milliy koloritga ega. U O'zbekiston manzaralarini ham, o'zbek milliy xarakterini ham adib ko'zi bilan emas, zehri o'tkir rassom ko'zi bilan ko'radi...

Ikkinchi holat – Said Ahmad asarlarida yumor bilan lirikaning chatishib ketganidir[3,354].

Ikkinchi etyud adibning bardoshi va sadoqati haqida. Uchinchi etyud esa adibning 80 yoshga to'lishi munosabati bilan yozilgan.

Ko'rinadiki, munaqqidning etyudlari bir mavzuning turli talqinlariga bag'ishlangan bo'lib, o'quvchini ijodkorlarning ijod laboratoriyasiga olib kirishga, ularni yozuvchi va shaxs sifatida chuqurroq anglashga yordam beradi.

Adabiyotlar:

- 1.Axmedova Sh.O'zbek adabiy tanqidchiligi janrlari.Toshkent. 2008.
- 2.Nazarov B. Va boshqalar. O'zbek adabiy tanqidi tarixi. Darslik. Toshkent. 2012. 358-bet.



3. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. Toshkent.2004, 354-bet.

4.<https://translate.google.com/?hl=ru&o&sl=ru&tl=uz&text>.